

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUL
№42



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
15-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-15**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-15**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 42-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 50 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Abdulboqiyeva Moxichehra Hamidullo qizi	
MUSIQA TARIXI VA UNING SHAKLLANISH YO'LLARI.....	7



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

MUSIQA TARIXI VA UNING SHAKLLANISH YO'LLARI

Abdulboqiyeva Moxichehra Hamidullo qizi

Namangan davlat universiteti Musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi
+998941510928

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta va yaqin sharqda musiqa ilmining taraqqiyoti va musiqa ilmi bilan shug'ulangan shaxslar faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bastakor, musiqashunoslar, folklorshunoslik, tarona, tasnif.

Qadimgi dunyoda, arab istilosidan oldingi davrlarda yozilgan, bevosita musiqaga oid risolalar bizgacha etib kelmagan bo'lsa ham, so'nggi vaqtlarda yaratilgan kitoblarda o'tmish musiqa tafakkuri haqida bir muncha ma'lumotlar berilgan. Forobiyning “Katta musiqa kitobi”, Xorazmiyning “Imlar kaliti” nomli qomusi, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari, Firdavsiyning “Shohnoma”, Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonlari va boshqa manbalarda qadimgi zamon musiqasiga oid ma'lumotlar keltirilib, Barbad, Sarkash, Ozodvor, Naqusaga o'xshagan zabardast cholg'uchi, bastakor va musiqashunoslarning ijodi ta'riflanadi. Ular ijro etgan musiqa asarlarining nomlari, mazmuni hamda ichki tuzilishiga oid tushuncha va iboralar, shuningdek, ijrochilik an'analari tilga olinadi.

Og'zaki an'anadagi professional musiqaning qadimiy namunalari “Navo”, “Parda”, “doston”, “roh”, “lahn”, “kavl”, “tarona”, “tasnif” va boshqa nomlar bilan yuritilgan.

Musiqa yo'llari turli toifa va turkumlarga mujassamlashtirilgan. O'rta Osiyo va Eron xalqlarining arab istilosidan oldingi professional musiqasida mashhur bo'lganlardan biri Xusravoniylar (shohona, ya'ni eng mukammal musiqa turi) turkumidir. Bu turkumga “Ganji arus” (kelinchak ganji), “Ganji gov” (sigir ganji), “Ganji faridun” (Faridun ganji), “Kini siyovush” (Siyovush uchun qasos) va boshqa yo'llar kirgan. Har bir Xusravoniy ikki qismdan va o'z navbatida kichik bo'limlardan tuzilganligi, hamda bu kuylar ovoz va cholg'ularda ijro etilganligi qayd qilinadi.

Qadimiy musiqaning yana bir mashhur turkumlaridan biri lahnlar turkumidir. Bu kuylarning nomlari va tartibi manbalarda turlicha keltiriladi. Barbod tuzga 7 xusravoniy, 30 lahn, 360 parda (pardalar ba'zan nag'ma deb ham yuritiladi) tizimi ko'plab tilga olindi. Bu tuzilmalar asosida O'rta Osiyo va Eron xalqlarining qadimiy kosmologik (koinot to'g'risidagi fan) qarashlarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. Bu turkumlar oy (qamar) yili kalendarining asosiga qarata qiyos qilingan. 7 xusravoniy – haftaning etti kuni va 360 doston esa yilning 360 kuniga nisbatan tuzilgan. O'tmishda mukammal nota yozuvlari odat bo'lmaganligi sababli bu qadimiy kuylarning sadolanishini hozirgi vaqtda aniq tasavvur etish qiyin. O'tmishda sharq nota yozuvlari og'zaki an'anadagi musiqaga mansub bo'lganligi sababli, faqat yodda bor bo'lgan musiqa yo'llarini xotiraga keltirish vazifasini bajarilgan. Lekin, ko'pchilik sharq xalqlarining musiqa madaniyatini rivojlanishida mazkur qadimiy yo'llarni muhim ahamiyat kasb etganligi shubhasiz. Uning an'analari, keyingi davrlarda yuzaga kelgan yangi musiqa tizimlariga, xususan, maqomlar tarkibiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimiy yo'llarning nomlari va umuman, boshqa xususiyatlarini, hattoki bizgacha etib kelgan shashmaqom tizimining misolida ham kuzatishimiz mumkin.

IX asrdan boshlab, O'rta Osiyo va umuman, O'rta va yaqin sharqda ijtimoiy va aniq fanlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, musiqa ilmi ham taraqqiy qila boshladi. Musiqa ilmining shakllanish va rivojlanish jarayoni buyuk donishmandlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino hamda ularning izdoshlari Safimuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy va boshqa o'nlab ajoyib musiqashunoslarning nomi bilan bog'liqdir.

Sharq olimlari, qadimgi yunon musiqa ilmining yirik namoyandalari, buyuk mutafakkir va musiqashunoslar –Pifagor va uning izdoshlari Platgon, Aristotel, Aristoksen, Ptolomey, Evklid meroslaridan ilhom olib, yangi ijtimoiy – siyosiy muhit va yangi musiqaviy an'analarni zaminida



davom ettirdilar. Musiqa ilmini ilg'or g'oyalar bilan boyitib, ajoyib kashfiyotlar qildilar va shu bilan birga jahon musiqa faniga salmoqli hissa qo'shdilar.

Davr an'alariga ko'ra, musiqa risolalari arab, keyinchalik esa fors tillarida yozila boshladi. Lekin o'rta asr musiqa ilmiga tor mahalliy xususiyatlar nuqtai nazaridan qaramaslik kerak. Forobiyning “Katta musiqa kitobi” Xalab (Aleppo), Ibn Sinoning “Javomi ilmi musiqiy” asari Urgench va Hamadon, Safiuddin Urmaviyning “Kitob ul advor” va “Sharafiya” risolalari Bag'dodda yozilgan bo'lsa ham, ularni faqat Shom (Suriya), Movorounnahr yoki Iroq musiqasiga tegishli deb bo'lmaydi. Garchi bu asarlarda musiqaning muayyan turlari, ayrim joylarning mahalliy xususiyatlariga tegishli ma'lumotlar bo'lsa ham, ular, asosan, musiqaning tub qonunlari va nazariy asoslarini keng ilmiy tafakkur nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan. Shuning uchun ham bu ilmiy meros O'rta va Yaqin Sharq xalqlari musiqa madaniyati va birinchi navbatda og'zaki an'anadagi professional musiqa namunalarini ilmiy asosda o'rganishga yordam beradi.

Musiqa, o'rta asr ilmlar klassifikatsiyasiga ko'ra arifmetika, geometriya va astronomiya bilan bir qatorda matematik fanlar tarkibiga kiritilgan. Shu tufayli musiqaviy hodisalar hamda uning nazariy asoslari matematik uslublar yordamida ochib beriladi. “Musiqa-matematika ilmi bo'lib, unda kuy yaratilishini bilish maqsadida nag'malarning o'zaro moslashishi va moslanmasligi jihati hamda ana shu nag'malar orasida o'tadigan vaqt o'rganiladi” – deb yozadi Ibn Sino.

Ammo musiqa ilmini mutlaqo sof matematik abstraktsiya deb tushunish ham o'rinni emas. Forobiy musiqa ilmini asoslashda: “Avvalo musiqa amaliyoti paydo bo'lib, keyin u haqdagi fikr vujudga keladi” – deb ta'kidlaydi.

Shuni aytish kerakki, o'rta asr ilmidagi “musiqa” iborasi professional musiqani ko'zda tutuvchi tushuncha. O'rta asrlarda hozirgidek musiqani folklor va professional turlariga ajratish odati bo'lmagan. Umuman, “folklor” tushunchasi ilmga ancha kech joriy qilingan. Musiqa folklorshunosligining fan sifatida shakllanishi, asosan, bizning asrimizga mansubdir.

O'rta asr musiqashunosligi g'oyat serqirra ilm bo'lib, unda nazariy va estetik masalalar asosiy va etakchi o'rinni egallaydi. Nazariya bilan estetikaning o'zi ham bir – biridan ajralgan ravishda emas, balki yagona “ilmi musiqiy” ning tarkibiy qismlari va ichki tuzilish qonunlari o'rganilsa, estetik tarafdin esa uning mafkuraviy va g'oyaviy asoslarini ochib berishda qo'llaniladigan tushunchalar ustida fikr yuritiladi.

Keyingi asrlarda, xususan, Safiuddin Urmaviy (XIII asr) ijodidan boshlab, musiqa nazariyasi - monodik (bir ovozli) musiqaning, asosan, ikki bosh mezoni – parda (umuman, tovushlarning baland – pastlik jihati, o'rni) va vazn (tovushlarning vaqt munosabati) nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan. Bular nisbiy mustaqil bo'lgan ikki ilmga ajratiladi – “ilmu ta'lif” va “ilmu iqo”.

Ilmu ta'lif kuyning dastlabki zarrachasi – tovushdan tortib, yirik musiqa tuzilmalari haqida tushunchalar beradi. Kuy bo'laklari: savt (tovush), nag'ma (parda ton), bu'd (interval), jins (dastlabki kuy tuzilmalarining parda asoslari, to'rt – besh pog'onali tovush qatorlar), ja'm (jinslarning birikmasidan hosil bo'ladigan bir oktava hajmidagi tovush tuzilmasi), intiqolot (ko'chish, modulyatsiya) kategoriyalari ustida fikr yuritadi.

Ilmu iqo' esa musiqa vaznining eng kichik birligi naqr (asl ma'nosi chertish, zarb vaznlarni o'lchash uchun shartli ravishda olingan birlik) va ulardan hosil bo'ladigan iqo' (ritm), davr (ritmik tuzilma), usul (ritmik davrning muayyan turi) kabi tushunchalarni o'rganishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida”gi №140-sonli Qarori.
2. Nurmatova M. A. «Musiqa o'qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuar» fani bo'yicha ma'ruzalar matni -Urganch, 2006
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston. – 2017.– .
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
5. Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi. (ilmiy – uslubiy tavsilar) II qism. - T.: Sharq, 2000

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 15-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000